

“LISON UT-TAYR”DAGI DONISHMAND VA SHOGIRT HIKOYATI: OBRAZLAR TAHLILI.

Abdumalikova Nazokat

Farg‘ona Davlar Universiteti talabasi

Kalit so‘zlar: Navoiy, Lison ut-tayr, hikoyat, donishmand, shogird, muhabbat, andisha, axloq, pand-nasihati, ma’naviy poklanish.

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridan o‘rin olgan Donishmand va uning vasliga oshiq bo‘lib yo‘ldan adashgan shogirdi haqidagi hikoya tahlil qilinadi. Hikoyada ma’naviy komillik, ustoz-shogird munosabati, nafs balosi, muhabbatning ko‘r-ko‘rona o‘tib ketuvchi kuchi va donishning ustivorligi kabi g‘oyalar yoritilgan. Maqolada asar syujeti, obrazlar tahlili, axloqiy xulosalar hamda Navoiy ijodidagi ma’naviy tarbiya tamoyillari sharhlanadi.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni Sharq adabiy-mistik tafakkurining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Asarda insonning ruhiy kamolot yo‘li, nafsni yengish, poklanish va ma’rifatga erishish bosqichlari ramziy hikoyatlar orqali ifodalanadi. Shulardan biri — Donishmand va uning iste’dodli shogirdi haqidagi hikoyat bo‘lib, unda ustoz-shogird munosabatlari, axloqiy mas’uliyat, muhabbatning ta’siri va donishning qudrati badiiy yoritilgan.

Hikoyani qisqacha bayonini aytadigan bo‘lsam, donishmand bir iste’dodli shogirdni tarbiyalaydi. Unga ilm sirlarini o‘rgatadi, hatto kelajakda Iskandar huzurida yuqori maqomga erishishini ham orzu qiladi. Ammo yosh shogird tasodifan bir ko‘rkam qizni ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qoladi. Ustozining barcha nasihatlarini, undagi ko‘p yillik ilm va tajribalar samara bermaydi — yigitning qalbini muhabbat qamrab oladi. Shogird qizga uylanadi, lekin qiz tez orada og‘ir kasalga chalinadi. Donishmand unga dori tayyorlab beradi, biroq qizni davolash jarayonida yigitning o‘zi ham betob bo‘lib qoladi. Nihoyat yigitning holi og‘irlashganda, ustoz uning dardini aniqlash uchun mahramlariga

topshiriqlar beradi va sababni topadi: yigitning kasalligi aslida nafsiy bog‘lanish, oson qo‘yib yubora olmaydigan muhabbatdan kelib chiqqan ruhiy iztirob ekan. Ustoz yigitni o‘z huzuriga chaqirib, unga o‘tkir so‘z bilan haqiqatni aytadi: bu muhabbat aslida ruhiy kasallik bo‘lib, insonni komillikdan chalg‘itadi. Yigit vasvasadan qutuladi va tuzaladi.

Obrazlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, donishmand obrazi - ma‘rifat va aql timsoli, ilm egalari uchun mas‘uliyat tajassumi, shogird taqdiriga befarq bo‘lmaydigan murabbiy, ruhiy kasallikka ham davo topa oladigan donish egasi. Ustozning asardagi vazifasi — yo‘ldan adashgan shogirdni ma‘naviy halokatdan qaytarish.

Shogird obrazi - avvaliga ziyrak, iste‘dodli, kelajagi porloq yosh sifatida tasvirlanadi. Ammo u: his-tuyg‘ularini idora qila olmaydi, nafsiy bog‘lanishga berilib ketadi, dunyoviy muhabbatni komillikka eltuvchi yo‘ldan ustun qo‘yadi. Bu obraz orqali Navoiy yosh avlodni ehtirolardan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi.

Qiz obrazi - qiz go‘zallik va chiroy timsoli bo‘lsa-da, uning taqdiri orqali muallif dunyoviy muhabbatning o‘tkinchiligi va insonni chalg‘ituvchi kuchini ko‘rsatadi. Qizning kasalligi — ramziy kasallik: ehtirosning o‘zi yorug‘lik emas, balki ko‘pincha insonni pastga tortuvchi vosita.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, “Lison ut-tayr”dagi Donishmand va shogird hikoyati Navoiy tomonidan insonning ichki kurashi, nafs balosi, ustozning o‘rni va ruhiy poklanish yo‘li haqida yaratilgan chuqur ma‘naviy o‘gitdir. Hikoya yoshlarni ehtirolarga berilmaslikka, ustoz so‘zini yuksak tutishga, komillik yo‘ldan og‘maslikka undaydi. Navoiy bu orqali insonni poklik, sabr, aql va donish sari boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy, A. Lison ut-tayr. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, turli yillar nashrlari.
2. Navoiy, A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. — Toshkent: Fan, 1987–2003.
3. Yo‘ldoshev, Q. Alisher Navoiy ma‘naviy merosi va tasavvuf. — Toshkent: Fan, 1996.

4. Qosimov, B. Navoiyshunoslikka kirish. — Toshkent: Universitet, 2011.
5. Eshonqulov, H. Navoiy asarlarida tasavvufiy qarashlar. — Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2018.